



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№4



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 52 sahifa.
E'lon qilishga 2025-yil 7-aprelda ruxsat etildi.*

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

- Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhmatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Khusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Цифровизация социально-трудовых отношений: вызовы и перспективы для работников.....	18
Абдумухтаров Анваржон Акрамжонович	
O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan soliq to'lovchi yuridik shaxslarning iqtisodiy faoliyatini rag'batlantirish masalalari.....	26
To'xtaboyev Nuriddin Isomiddin o'g'li	
Ecotourism in Protected Areas: A Literature Review.....	32
Ismoilova Maftuna Mamat qizi	
Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirishning hududiy xususiyatlari.....	38
Primova Shaxlo Jumayevna	
Statistik baholash va ekonometrik modellashtirish orqali biznes rivojlanish tendensiyalarini samaradorligini baholash.....	43
Xabibullayev Ibrohim, Saidova Marhabo Xabibullo qizi	



O'ZBEKISTONDA FAOLIYAT KO'RSATAYOTGAN SOLIQ TO'LOVCHI YURIDIK SHAXSLARNING IQTISODIY FAOLIYATINI RAG'BATLANTIRISH MASALALARI

To'xtaboyev Nuriddin Isomiddin o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada soliq to'lovchilarni ro'yxatga olish, yashirin iqtisodiyotni oldini olish hamda soliqlar bazasini oshirish chora-tadbirlari yoritilib berilgan. Mamlakatimizda soliq to'lovchilarni o'sib borishi yillar kesimida tahlili yoritilib berilgan. Amalga oshirilgan tadqiqotlar asosida tegishli xulosalar va takliflar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: soliqlar, soliq bazasi, soliq to'lovchi, budget daromadlari.

Abstract: This article describes the measures to register taxpayers, prevent the hidden economy, and increase the tax base. The analysis of the growth of tax payers in our country over the years is highlighted. Relevant conclusions and suggestions were formed based on the conducted research.

Key words: taxes, tax base, taxpayer, budget revenues.

Аннотация: В данной статье описаны меры по регистрации налогоплательщиков, предотвращению скрытой экономики и увеличению налоговой базы. Освещен анализ роста налогоплательщиков в нашей стране за эти годы. На основе проведенных исследований были сформированы соответствующие выводы и предложения.

Ключевые слова: налоги, налоговая база, налогоплательщик, бюджетные доходы.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida budget daromadlarini barqarorligi mamlakat iqtisodiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Jahon standartlariga javob beradigan va dunyo bozorida talab qilinadigan mahsulot ishlab chiqaradigan korxonalar sonini oshirish, birinchi navbatda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etish, hududlarning ishlab chiqarish va resurs salohiyatidan kompleks va samarali foydalanish, yangi ish o'rinlari yaratish va aholi daromadini oshirishning muhim omili sifatida xo'jalik subyektlariga alohida e'tibor berilmoqda. Soliq to'lovchilarni sonini ko'paytirish zamonaviy raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish turlarini tashkil etish, yangi ish o'rinlari yaratish hamda aholi daromadlarining o'sishini ta'minlashga, mamlakat yalpi ichki mahsulot hajmini oshirish va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda hamda sof eksport hajmini oshishida ham muhim rol o'ynaydi.

Mamlakatimizda soliq to'lovchilarni ro'yxatga olish bo'yicha ko'plab chora tadbirlar amalga oshirilmogda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 28-oktyabrdagi "Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish tizimini takomillashtirish to'g'risida" PQ-2646-son¹ qaroriga muvofiq Vazirlar Mahkamasi qaror qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-aprelda "Soliq to'lovchilarni hisobga qo'yish sohasidagi ayrim davlat xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha ma'muriy reglamentlarni tasdiqlash to'g'risida" 150-son² qarori qabul qilindi. Qaror bilan Soliq to'lovchilarni hisobga qo'yish sohasidagi davlat xizmatlarini ko'rsatishning quyidagi ma'muriy reglamentlari tasdiqlandi:

Ko'chmas mulk ijara yoki tekinga foydalanish shartnomalarini soliq organlarida hisobga qo'yish;

Chet el yuridik shaxslarining doimiy muassasalarini hamda alohida bo'linmalarini soliq organlarida hisobga qo'yish;

Tovar-xomashyo birjalarida operatsiyalarni amalga oshiruvchi va jamiyatlarning aksiyalarini sotib oladigan hamda jismoniy shaxslarga etiladigan elektron shakldagi xizmatlarni ko'rsatuvchi chet el yuridik shaxslarini soliq organlarida hisobga qo'yish;

Soliq to'lovchilarni soliq organlarida soliq solish obyekti bo'yicha hisobga qo'yish;

1 <https://lex.uz/docs/-3063485>

2 <https://lex.uz/uz/docs/-5936132>



Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi rezidentlari – yuridik va jismoniy shaxslarning doimiy joylashuvi (rezidentlik) faktini rasmiy tasdiqlab berish;
Soliq to'lovchilarga shaxsiy hisobvaraqlardan ko'chirmalarni va solishtirma dalolatnomani taqdim etish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

R.Musgrave va P.Musgrave[3] maqolasida davlat moliyaviy siyosatini tadbirkorlik va iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirish nuqtayi nazaridan atroflicha tahlil qiladilar. Ular davlat daromadlari va xarajatlari tizimini rivojlantirish orqali korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirishni asoslab beradilar. Soliq tizimi ijtimoiy adolatni ta'minlash va iqtisodiy resurslarni optimal taqsimlashning asosiy mexanizmi sifatida tasvirlanadi. Ushbu asarda keltirilgan nazariy yondashuvlar O'zbekistonda soliq siyosatini takomillashtirish orqali yuridik shaxslarning iqtisodiy rag'batlarini kuchaytirish yo'nalishida ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

R.Barro[4]ning tadqiqoti davlat xarajatlari va soliqlarni iqtisodiy o'sish bilan bog'liq uslubda tahlil qiladi. Muallif davlat xarajatlarini samarali boshqarish va soliq yukini kamaytirish orqali tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish mumkinligini ko'rsatadi. Ushbu asar iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish maqsadida davlat soliqlarining qanchalik muvozanatli va samarali bo'lishi lozimligini asoslaydi. O'zbekiston sharoitida soliq yukining moslashuvchanligi va soliq imtiyozlari ta'sirini o'rganishda bu tadqiqotdan foydalanish mumkin.

V.Tanzi va H.Zee[5] rivojlanayotgan davlatlarda soliq siyosatining yuridik shaxslar faoliyatiga ta'sirini o'rganadilar. Ular soliqlarni kamaytirish, sodda soliq tizimlarini joriy qilish va soliq ma'murchiligini takomillashtirish orqali korxonalarini rivojlantirish imkoniyatlarini tahlil qiladilar. Shuningdek, tadqiqotda soliq siyosatini iqtisodiy o'sish bilan uyg'unlashtirish masalasi alohida ko'rib chiqilib, yuridik shaxslarning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash uchun qator tavsiyalar berilgan.

J.Stiglitz[6] davlatning iqtisodiy faoliyatdagi roli, jumladan soliqlar, subvensiyalar va davlat xarajatlari orqali iqtisodiyotni tartibga solish mexanizmlarini chuqur tahlil qiladi. Muallif soliqlarni iqtisodiy barqarorlikni saqlash va resurslarni samarali taqsimlash vositasi sifatida qaraydi. Soliq tizimini takomillashtirish orqali korxonalarining innovatsion faolligini rag'batlantirish va iqtisodiy o'sishni tezlashtirish masalalari yoritilgan. Ushbu asar O'zbekistonda yuridik shaxslarning iqtisodiy faoliyatini rag'batlantirish bo'yicha nazariy asoslar yaratishda qo'llanilishi mumkin.

M.Mirziyoyeva[7] o'z maqolasida O'zbekistonda so'nggi yillarda amalga oshirilgan soliq islohotlari va ularning yuridik shaxslar iqtisodiy faoliyatiga ta'sirini batafsil tahlil qiladi. Soliq stavkalarining qisqartirilishi, yangi imtiyozlar joriy etilishi va soliq hisobotlarini avtomatlashtirish kabi omillar yuridik shaxslarning iqtisodiy rag'batini oshirishga xizmat qilgani tadqiqotda empirik misollar bilan asoslangan. Shuningdek, maqolada yuridik shaxslar iqtisodiy faolligini qo'llab-quvvatlash uchun xalqaro tajriba va tavsiyalar keltirilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda O'zbekistonda soliq to'lovchilar sonining o'sishi va soliqqa tortish tizimining samaradorligi iqtisodiy-statistik tahlil asosida baholandi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, Milliy statistika qo'mitasi va xalqaro tashkilotlarning hisobotlariga asoslangan holda yig'ildi. Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

Deskriptiv tahlil – Soliq to'lovchilar sonining dinamikasi yillar kesimida o'rganildi.

Qiyosiy tahlil – O'zbekiston va boshqa mamlakatlar soliq tizimi solishtirildi.

Regressiya tahlili – Soliq bazasining kengayishiga ta'sir etuvchi omillar statistik usullar yordamida baholandi.

Empirik tadqiqot – O'zbekistonda soliq tizimini takomillashtirishga doir amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Mazkur metodologiya asosida olib borilgan tahlillar soliqqa tortish tizimidagi mavjud muammolarni aniqlash va ularni hal qilish bo'yicha aniq takliflarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

2024-yilda O'zbekistonda jami 688 345 ta yuridik shaxs faoliyat yuritmoqda, bu esa 2023-yilga nisbatan 9,7% o'sishni ko'rsatadi. Bu o'sish iqtisodiy faollikning ortib borayotganidan darak bersa-da, yangi ro'yxatdan o'tgan tadbirkorlik subyektlari sonining pasayishi kuzatilgan – 2023-yilda 88 787 ta yangi subyekt ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 79 667 taga tushgan. Bu esa tadbirkorlik muhitida ayrim to'siqlar mavjudligini anglatadi. Birinchi jadvalda ham buni ko'rishimiz mumkin.

Soliq bazasining kengayishi iqtisodiyotning turli tarmoqlarida har xil sur'atda kechmoqda. Masalan, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida korxonalar soni 8,41% ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish sanoatida bu ko'rsatkich 4,57% ni tashkil etdi. Suv ta'minoti va ekologik xizmatlar sektori esa 27,73% lik yuqori o'sish sur'atini ko'rsatdi. Bu esa ushbu sohalarga bo'lgan talabning ortganini bildiradi (1-jadval).



1-jadval. O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni(iqtisodiyot tarmoqlari kesimida, yillik).

Code	Klassifikator	2023	2024	2024-yildan 2023-yilga nisbati(foizda)
A	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	57 925,00	62 796,00	8,41
B	Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	3 179,00	3 371,00	6,04
C	Ishlab chiqarish sanoati	100 040,00	104 614,00	4,57
D	Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	545,00	694,00	27,34
E	Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish	1 583,00	1 710,00	8,02
F	Qurilish	49 173,00	53 128,00	8,04
G	Ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash	194 249,00	220 265,00	13,39
H	Tashish va saqlash	21 688,00	24 700,00	13,89
I	Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	39 549,00	43 584,00	10,20
J	Axborot va aloqa	12 906,00	15 008,00	16,29
K	Moliyaviy va sug'urta faoliyati	3 857,00	4 223,00	9,49
L	Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar	15 801,00	17 111,00	8,29
M	Professional, ilmiy va texnik faoliyat	20 429,00	22 836,00	11,78
N	Boshqarish bo'yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko'rsatish	16 116,00	18 333,00	13,76
O	Davlat boshqaruvi va mudofaa; majburiy ijtimoiy ta'minot	13 683,00	13 713,00	0,2
P	Ta'lim	35 167,00	36 873,00	4,85
Q	Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	12 037,00	13 065,00	8,54
R	San'at, ko'ngil ochish va dam olish	7 611,00	8 172,00	7,37
S	Boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish	21 936,00	24 147,00	10,08
T	Uy xizmatchilari yollovchi va o'z iste'moli uchun tovarlar va xizmatlar ishlab chiqaruvchi uy xo'jaliklari faoliyati	1,00	2,00	100,00
U	Eksterritorial tashkilotlar faoliyati	-	-	-
	Jami	627 475,00	688 345,00	9,70

Umumiy dinamikaga qarash, 2023–2024-yillardagi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish tahlili shuni ko'rsatadiki, o'rtacha o'sish 9,7% atrofida bo'lgan. Bu o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'atining ijobiy ekanini bildiradi.

Asosiy statistik ko'rsatkichlar:

O'rtacha ko'rsatkich (2023): 29 879;

O'rtacha ko'rsatkich (2024): 32 778;

Eng yuqori ko'rsatkich: 2023-yilda **194 249** (Ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash), 2024-yilda **220 265** (Ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash).



Bu ko'rsatkichlar iqtisodiyotning o'sayotganini, ammo har bir tarmoqning o'sish sur'ati turlicha ekanini ko'rsatmoqda. Xalqaro iqtisodiy tadqiqotlarga ko'ra, yangi tadbirkorlik subyektlarining kamayishi odatda soliq yukining oshishi, kredit resurslarining yetishmovchiligi yoki tartibga solish muhitining qiyinlashuvi bilan bog'liq bo'ladi. O'zbekistonda ham yangi tashkil etilgan korxonalar sonining kamayishi tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq tartibga solish mexanizmlarining murakkabligidan dalolat beradi. Shu bois soliqqa tortish tizimining yanada soddalashtirilishi, soliq imtiyozlari berish mexanizmlarining takomillashtirilishi va biznes yuritish sharoitlarini yaxshilash muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiyotning eng yirik tarmoqlari bo'lmish sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmatlar sektori bo'yicha quyidagi o'zgarishlar kuzatilgan: (2-jadval).

2-jadval.

Tarmoq	2023 y.	2024 y.	O'sish (%)
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	57 925	62 796	8.41%
Ishlab chiqarish sanoati	100 040	104 614	4.57%
Tog'-kon sanoati	3 179	3 371	6.04%

Qishloq xo'jaligi sektori iqtisodiyotning asosiy drayverlaridan biri bo'lib, **8,41%** lik o'sishga erishgan. Bu esa ekin maydonlarining kengayishi, hosildorlikning oshishi va qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talabning ortishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Ishlab chiqarish sanoati faqat **4,57%** ga oshgan. Bu esa sektorning barqaror rivojlanayotganini, biroq sezilarli o'sishga erishmaganligini anglatadi.

Tog'-kon sanoati esa **6,04%** lik o'sish ko'rsatkichiga ega. Bu tabiiy resurslarga bo'lgan talabning o'sishi yoki yangi konlarning o'zlashtirilishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

2024-yil 79 667 ta tadbirkorlik subyektlari ro'yxatdan o'tgan bo'lib, bu 2023-yilga nisbatan pasayganini ko'rishimiz mumkin (3-jadval).

3-jadval.

Code	Klassifikator	2023	2024	2024-yildan 2023-yilga nisbati(foizda)
A	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	9 397,00	9 117,00	-2,98
B	Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	263,00	309,00	17,49
C	Ishlab chiqarish sanoati	13 387,00	12 123,00	-9,44
D	Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	206,00	179,00	-13,11
E	Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish	256,00	327,00	27,73
F	Qurilish	4 870,00	3 927,00	-19,36
G	Ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash	33 477,00	28 026,00	-16,28
H	Tashish va saqlash	3 957,00	2 753,00	-30,43
I	Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5 964,00	6 506,00	9,09
J	Axborot va aloqa	2 935,00	2 931,00	-0,14
K	Moliyaviy va sug'urta faoliyati	259,00	267,00	3,09
L	Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar	472,00	552,00	16,95



M	Professional, ilmiy va texnik faoliyat	2 442,00	2 943,00	20,52
N	Boshqarish bo'yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko'rsatish	2 056,00	2 151,00	4,62
O	Davlat boshqaruvi va mudofaa; majburiy ijtimoiy ta'minot	321,00	257,00	-19,94
P	Ta'lim	2 481,00	2 333,00	-5,97
Q	Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1 479,00	1 523,00	2,97
R	San'at, ko'ngil ochish va dam olish	770,00	754,00	-2,08
S	Boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish	3 794,00	2 689,00	-29,12
T	Uy xizmatchilari yollovchi va o'z iste'moli uchun tovarlar va xizmatlar ishlab chiqaruvchi uy xo'jaliklari faoliyati	1,00	-	-100,00
U	Eksterritorial tashkilotlar faoliyati	-	-	
	Jami	88 787,00	79 667,00	

2023–2024-yillarda iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni **o'rtacha 7,3% ga kamaygan.**

Asosiy statistik ko'rsatkichlar:

2023-yil o'rtacha soni: 4 227 ta

2024-yil o'rtacha soni: 3 793 ta

Eng ko'p tashkil etilgan korxonalar soni (2023): 33 477 ta

Eng ko'p tashkil etilgan korxonalar soni (2024): 28 026 ta

Ushbu ko'rsatkichlar yangi korxonalar ochilishi bo'yicha pasayish tendensiyasi mavjudligini ko'rsatmoqda. Lekin umumiy faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar oshishi bo'yicha esa o'sishni ko'rishimiz mumkin. Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni qayta ishlash va utilitatsiya qilish – 27,73% lik o'sish qayd etilgan (4-jadval).

4-jadval.

Tarmoq	2023 yil	2024 yil	O'sish (%)
Suv bilan ta'minlash	256	327	27,73%

Sabablari esa suv ta'minoti va ekologik xizmatlarga talabning oshishi, atrof-muhit muhofazasi bo'yicha loyihalarning kengayishi, chiqindilarni qayta ishlashga bo'lgan e'tibor ortib borayotgani bo'lishi mumkin.

Iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarida yangi tashkil etilgan korxonalar soni boshqa sohalarga nisbatan yuqori bo'lgan lekin 2023-yilga nisbatan 2024-yil pasayganini ko'rishimiz mumkin (5-jadval).

5-jadval.

Tarmoq	2023 yil	2024 yil	O'zgarish (%)
Savdo va chakana savdo	33 477	28 026	-16,30%
Qishloq xo'jaligi	9 397	9 117	-2,98%
Ishlab chiqarish sanoati	13 387	12 123	-9,45%

Savdo sohasida pasayish kuzatilmoqda, bu esa bozorda raqobat kuchaygani yoki talab pasayganidan dalolat berishi mumkin. Qishloq xo'jaligida esa nisbatan barqarorlik kuzatilmoqda. Ishlab chiqarish sanoatida korxonalar tashkil etish hajmi biroz kamaygan.

Umuman olganda, 2023–2024-yillarda iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha o'sish sur'atlari va yangi tashkil etilgan korxonalar soni bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki, umumiy iqtisodiy holat ijobiy yo'nalishda rivojlanmoqda. Biroq ba'zi tarmoqlarda sust o'sish va yangi korxonalar tashkil etilishining kamayishi kuzatildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi korxonalar va tashkilotlar sonining ortishi, tadbirkorlik muhitining yaxshilanishi va soliqlar tortish bazasining kengayishi bilan chambarchas bog'liq. Bozor



mexanizmlarining takomillashuvi, davlat tomonidan tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash choralari hamda investitsiyalarni jalb etish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar natijasida iqtisodiyotning turli tarmoqlarida o'sish kuzatilmoqda. Biroq, ayrim sektorlarning rivojlanish sur'ati turlicha bo'lib, tadbirkorlik subyektlarining faoliyati va yangi korxonalarining tashkil etilishi bo'yicha ayrim muammolar ham mavjud. Ushbu maqolada iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha o'sish tendensiyalari, soliq bazasining kengayishi va yangi tashkil etilayotgan korxonalar sonining dinamikasi tahlil qilindi.

Asosiy natijalar:

- O'rtacha o'sish 9,7% ni tashkil etdi, bu iqtisodiy faollikning oshayotganini bildiradi.
- Savdo, xizmatlar va ishlab chiqarish sanoatida yangi korxonalar soni kamaygan, u esa tadbirkorlik muhitining biroz murakkablashayotganidan darak beradi.
- Eng yuqori o'sish infratuzilma va ekologiya bilan bog'liq tarmoqlarda kuzatildi (suv ta'minoti va chiqindilarni qayta ishlash sektori – 27,73%).
- Energetika va transport tarmoqlari barqaror o'sishda davom etmoqda, bu esa iqtisodiy rivojlanish uchun muhim omildir.
- Budjet daromadlarida savdo va ishlab chiqarish sanoati asosiy o'rin tutmoqda, biroq bu sohalardagi sust o'sish kelajakda soliq tushumlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib ushbu takliflarni berishimiz mumkin:

Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va yangi korxonalar sonini oshirish:

- Tadbirkorlik subyektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash dasturlarini kengaytirish.
- Litsenziya va ro'yxatga olish jarayonlarini soddalashtirish, ayniqsa kichik biznes uchun.
- Startaplar va innovatsion bizneslar uchun imtiyozlar va grantlar joriy etish.

Ishlab chiqarish sanoatini rivojlantirish:

- Mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun imtiyozli kreditlar va soliq imtiyozlarini kengaytirish.
- Eksport salohiyatini oshirish uchun ishlab chiqarish korxonalariga qulay shart-sharoit yaratish.

Qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash va eksport salohiyatini oshirish:

- Dehqon va fermer xo'jaliklari uchun raqamli texnologiyalarni keng joriy etish.

Davlat boshqaruvi va soliq tizimini modernizatsiya qilish:

- Soliqlarni yig'ish tizimini yanada shaffoflashtirish va soddalashtirish.
- Elektron soliq tizimlarini rivojlantirish orqali tadbirkorlar uchun qulaylik yaratish.
- Davlat sektorida raqamli xizmatlarni kengaytirish va korrupsiyani oldini olish uchun avtomatlashtirish.

Kelgusida iqtisodiyot tarmoqlarini diversifikatsiya qilish va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish orqali barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. – Toshkent, 2024.
2. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. – Toshkent, 2023.
3. Musgrave, R.A., & Musgrave, P.B. (1989). Public Finance in Theory and Practice (5th ed.). New York: McGraw-Hill.
4. Barro, R.J. (1990). Government Spending in a Simple Model of Endogenous Growth. *Journal of Political Economy*, 98(5), S103–S125.
5. Tanzi, V., & Zee, H. H. (2001). Tax Policy for Developing Countries. IMF Working Paper, WP/01/08.
6. Stiglitz, J.E. (2000). Economics of the Public Sector (3rd ed.). New York: W.W. Norton & Company.
7. Mirziyoyeva, M. (2022). Soliq islohotlari va biznes muhitining yaxshilanishi: O'zbekiston tajribasi. *Moliyaviy ta'lim va tadqiqotlar jurnali*, 10(2), 45–56.
8. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. "O'zbekiston iqtisodiy ko'rsatkichlari 2023-2024." – Toshkent, 2024.
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 02.04.2022 yildagi 150-son qarori. "Soliq to'lovchilarni hisobga qo'yish sohasidagi ayrim davlat xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha ma'muriy reglamentlarni tasdiqlash to'g'risida." <https://lex.uz/uz/docs/-5936132>
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori PQ-2646-son (28.10.2016). "Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish tizimini takomillashtirish to'g'risida." <https://lex.uz/docs/-3063485>
11. Jahon banki. "Doing Business 2023: O'zbekiston bo'yicha hisobot." – Vashington, 2023.
12. Xalqaro valyuta jamg'armasi. "O'zbekiston iqtisodiy rivojlanish prognozlari." – 2024.
13. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. "Davlat budjeti daromadlari va xarajatlari tahlili." – Toshkent, 2024.
14. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. "O'zbekistonning monetar siyosati va bank tizimi rivojlanishi." – Toshkent, 2024.
15. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi. "O'zbekistonda tadbirkorlik muhitining rivojlanishi." – Toshkent, 2024.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>